



ISSN: 3060-4613



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№6/2025

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 160 sahifa,
5-iyun, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjijev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyyev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Iqim o'zgarishi muammolari va "yashil ko'nikmalar"ning rivojlanishi.....	14
<i>Abdurashit Karimovich Avliyaqulov</i>	
TTJlardagi qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish.....	18
<i>Xasanboy U. Abdusamatov</i>	
Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili	26
<i>Jalilov Nodirjon Azamatovich</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....	30
<i>G'ayibova Nargiza Anorbayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari	33
<i>Hakimova Gulmira To'xtatosheva</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari.....	37
<i>Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi</i>	
Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'siri	41
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников.....	44
<i>Умрихина Виктория Игоревна</i>	
Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода	52
<i>Ахунова Умида Ойбековна</i>	
Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: o'qitish va boshqaruvdagi o'rni.....	55
<i>Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi</i>	
Buxorodagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi.....	60
<i>Axrоров Ixtiyor Doniyorovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va maktabning roli.....	63
<i>Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li</i>	
Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход	67
<i>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</i>	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	75
<i>Otasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari.....	78
<i>Xodjimatrova Nazira Toshmatovna, Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'limning o'rni	81
<i>B. Xusniddinova</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish	85
<i>Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi	89
<i>Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi</i>	
Sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	92
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna</i>	
Methodology of Teaching English to Preschool Children	96
<i>Khurshida Tojimurodova</i>	
Malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..	100
<i>Ch. B. Nalibayeva</i>	
O'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari	103
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o'rni.....	106
<i>Boymirzayeva Xurshida Sobirovna</i>	



Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari	110
Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li	
An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development..	113
Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna	
O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	118
Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi	
Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari	123
Jo'rayev Ilhom Isxoqovich	
Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish	126
Muxlisa Satriddinova Muhitdinova	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	132
Nuriddinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	136
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi	
Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari.....	139
Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi	
Nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda o'yinlarning o'rni.....	143
Jabborova Oltinoy	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	146
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Ta'lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari	150
Uzaqov Nomozali Hamdamovich	
Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari	153
Z. M. Zarifova	

INTEGRATIV YONDASHUV BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJODIY VA TAHLILIIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

Jalilov Nodirjon Azamatovich

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Harbiy ta'lim fakulteti, uslubiy tayyorgarlik sikli o'qituvchisi,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili sifatida nazariy tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitish mexanizmlarini yaratish hamda uning pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: pedagog, ijodiy, talaba, tahliliy, innovatsion, kompetensiya, texnologiya, vatanparvarlik, konsepsiya, integrativ yondashuv, modernizatsiya.

Abstract: This article presents a theoretical justification for the integrative approach as a key factor in developing creative and analytical thinking skills in future teachers. It also addresses the creation of mechanisms for integrated subject teaching in higher education and the identification of its pedagogical and didactic foundations.

Key words: educator, creativity, student, analytical thinking, innovation, competence, technology, patriotism, concept, integrative approach, modernization.

Аннотация: В статье теоретически обоснован интегративный подход как ключевой фактор развития творческого и аналитического мышления у будущих педагогов. Также рассмотрены вопросы создания механизмов интегративного обучения в системе высшего образования и определения его педагогических и дидактических основ.

Ключевые слова: педагог, креативность, студент, аналитическое мышление, инновации, компетентность, технологии, патриотизм, концепция, интегративный подход, модернизация.

KIRISH

Mamlakat ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalash jarayonlariga moslashtirish, o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, integratsiyalashgan texnologiyalar va ishlanmalarni faol tatbiq etish orqali talabalarning kasbiy ko'nikmalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy mutaxassis ma'lumotli, axloqiy jihatdan yetuk, harakatchan, mas'uliyatli, hamkorlikda ishlay oladigan va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, shuningdek, o'z faoliyatida integrativ yondashuvdan samarali foydalanishi talab etiladi. Integratsiya ta'limdagi muhim innovatsion jarayonlardan biri hisoblanadi.

Integrativ yondashuv quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- mutaxassisni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi;
- ta'lim oluvchini dunyoni yaxlit idrok etishga o'rgatadi;
- ijtimoiy va kasbiy sohalarida faol harakat qila oladigan darajada tarbiyalaydi;
- ta'lim sifatiga bo'lgan talabni kuchaytiradi va talabning dars o'zlashtirish, bilim darajasini oshirishga motivatsiyasini kuchaytiradi;
- turli fanlar o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi.

Integratsiya talabalarning faol va birgalikdagi ijodiy jarayonga jalb etilishini ta'minlaydi. Bu esa puxta o'ylangan ta'lim-tarbiya jarayoni bo'lib, o'quv jarayonini qayta ko'rib chiqish hamda talabalarni idrok etish mexanizmlariga tayyorlashga xizmat qiladi.



Talabalarda axborotni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirib, ularning dunyodagi barcha jarayonlarni bir butun sifatida anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, integrativ yondashuvning ayrim kamchiliklari va salbiy oqibatlar ham mavjud.

Ta'limda integratsiya orqali reproduktiv yondashuvni amalda qo'llash – talabaga ilgari o'zlashtirilgan bilim va materiallardan foydalangan holda yangi bilim hosil qilish imkonini beradi. Bu usul ta'limning samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuv bo'lajak pedagoglarning ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy asos sifatida e'tirof etiladi. Z. Sh. Karimovning ta'kidlashicha, integratsiyalashuv eksperimental mujassamlanishning kengligi, ijodiy konsepsiyaning chuqurligi, tarixiy taraqqiyotning davomiyligi va dialektikasi jihatidan boshqa pedagogik hodisalardan ustun turadi. Bu yondashuv ta'lim jarayonida fanlararo, fan ichidagi va shaxslararo aloqadorlikni yuzaga keltirib, murakkab bilim va ko'nikmalarni yaxlit tarzda shakllantirish imkonini beradi.

I. A. Zimnaya va E. V. Zemtsova integrativ yondashuvni kamida bitta umumiy belgiga ega obyekt, hodisa yoki jarayonlarning yaxlit tasviri sifatida ko'radi. Ular bu yondashuv natijasida sifat jihatidan yangi holat vujudga kelishini ta'kidlaydilar. V. F. Tenishcheva esa integrativ yondashuvni nazariy va amaliy masalalarni tizimli fikrlash asosida hal etishda inson salohiyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida izohlaydi. Shunday qilib, pedagogik adabiyotlarda integratsiya tushunchasi turli nuqtai nazardan yondashilgan bo'lsa-da, ularning umumiy jihati – ta'limda yaxlitlik va bog'liqlikni ta'minlashdir.

Integrativ yondashuv texnologik va mazmuniy darajalarda amalga oshiriladi. Bu yondashuv talabalarning intellektual salohiyatini ochib berish, ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda o'z-o'zini tarbiyalash, rivojlantirish va ijtimoiylashuv uchun zarur psixologik-pedagogik sharoitlar yaratishda xizmat qiladi. Ijtimoiylashuv esa shaxs hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u aniq yo'naltirilgan natijalar orqali shaxsiy qadriyatlarni shakllantiradi. Bu jarayonda ta'lim muhiti muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

B. Abdullayeva o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, ko'nikma va malakalar aynan fikrlash operatsiyalari orqali shakllanadi va o'quv-tarbiya jarayonining negizini tashkil etadi. Integratsiyaning uchta asosiy darajasi mavjud: birinchisi, predmet ichidagi integratsiya bo'lib, bu tushuncha, bilim va ko'nikmalarning o'zaro bog'liq elementlar asosida bir butunga birlashishini anglatadi; ikkinchisi, fanlararo integratsiya bo'lib, u ikki yoki undan ortiq fan doirasida faktlar, tushunchalar va tamoyillar sintezini ifodalaydi; uchinchisi esa transdisiplinar integratsiya bo'lib, unda asosiy va qo'shimcha ta'lim mazmuni yagona struktura asosida uyg'unlashtiriladi.

Pedagogik fanlarni o'zlashtirishda integrativ yondashuvning asosiy printsiplari sub'ektivlik, madaniyatlilik, ijodkorlik, fuqarolik–vatanparvarlik qadriyatlariga yo'naltirish, sinergiya, o'z-o'zini tarbiyalash, madaniyatlararo muloqot va o'quv subyektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositalarining moslashuvchanligi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Bu printsiplar o'z navbatida integrativ yondashuvning tarkibiy qismlarini shakllantiradi. Tashkiliy-uslubiy komponent ta'lim usullarining uyg'unlashuvini (munozara, loyiha usuli, interaktiv o'yinlar, davra suhbatlari va h.k.) ifodalaydi; faoliyat-amaliy komponent esa tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kasbiy fazilatlarni rivojlantiruvchi ta'lim shakllarini birlashtiradi; resurs komponenti esa o'quv va kognitiv faoliyat uchun zarur bo'lgan resurslarni birlashtirgan holda, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan maxsus kurslar mazmunini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar asosiy va ikkilamchi manbalar orqali to'plandi, jumladan, ilmiy maqolalar tahlili, amaliyotchi pedagoglar bilan suhbatlar va kuzatuv usuli qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy tahlil asosida tizimlashtirildi hamda integrativ yondashuvning ta'lim jarayonidagi samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quv fanlarini o'zlashtirish jarayonida integrativ yondashuvning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: fuqarolik ongini shakllantirish, o'qituvchi shaxsining o'z-o'zini anglashini ta'minlash, ijtimoiy-huquqiy, fuqarolik–vatanparvarlik va axloqiy me'yorlar doirasidagi bilimlarni egallash, shuningdek, tadqiqot olib borish, loyihalash, kommunikativ, aks ettiruvchi va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy fazilatlarni shakllantirish. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarining zamonaviy moddiy-texnik bazasini shakllantirish va uni oqilona ekspluatatsiya qilish, zamonaviy kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan ta'lim masalasi zamonaviy pedagogik jarayonning dolzarb muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim tizimida fanlarni integratsiyalab o'qitish mexanizmlarini yaratish, ularning pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish zarurati zamon talabi darajasiga ko'tarilmoqda. Shu sababli, eng avvalo "integratsiya" tushunchasi-ning mohiyatiga aniqlik kiritish lozim. Integratsiya – bu alohida bo'laklar yoki elementlarning o'zaro birlashuvi va yaxlit tizimga aylanishidir. Lotin tilidagi "integration" so'zidan olingan ushbu atama "qayta tiklash", "butunlashtirish", "o'zaro bog'langan holda rivojlantirish" ma'nolarini anglatadi.

Didaktika sohasida o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash muammosiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu muammo doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida fanlararo aloqadorlikning metodologik yo'nalishlari shakllantirilgan. Xususan, V. N. Fedorova rahbarligidagi ilmiy izlanishlar fanlararo integratsiyaning nazariy asoslarini belgilab bergan bo'lib, bu yondashuv o'quv fanlari mazmunidagi bilim va tushunchalarning o'zaro uyg'unligidan tashqariga chiqadi. Rossiyalik tadqiqotchi L. V. Pivovarova esa integrativ metodikani texnologik yondashuvlar kontekstida tahlil qilib, ushbu metodikaning asosiy vazifasi sifatida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini uyg'unlashtirgan ta'lim modellarini ishlab chiqishni ta'kidlaydi. Shuningdek, u integratsiyalashgan texnologiyalarni tatbiq etish bir qator didaktik, metodik va kognitiv omillar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda uning subyektlari va obyektlari o'rtasidagi integrativ munosabatlar mavjud bo'lishi, o'quvchilarning kognitiv kategoriyalar asosida shakllanuvchi bilim modellariga tayanuvchi faoliyatini zaruratga aylantiradi. O'quv fanlariaro aloqadorlik bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bu masalaga mustaqil pedagogik yondashuv sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda bu yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlarda integratsiyaning tarbiyaviy salohiyatiga ham alohida urg'u berilmoqda. Ayniqsa, integratsiyalashgan pedagogik muhitda o'qitish jarayonida tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirishda o'qituvchining roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Integrativ yondashuv – bu o'quvchi tomonidan turli fanlardan olingan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni uyg'unlashtirish, ularga asoslanish, ularni birlashtirish va shu asosda kompleks kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonidir. Psixologik fanlar turkumida fikrlash operatsiyalari bilish faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'riladi va bu strategiyalar sintez vositasida turli darajadagi bilim tizimlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Integratsiya bilish mexanizmining muhim elementi bo'lib, bu jarayonda bilim qismlarini sintezlash asosida fikrlash strategiyalari shakllanadi va natijada ko'zlangan pedagogik maqsadga erishiladi.

Integrativ bilimlarni shakllantirish jarayoni uch yo'nalishda kognitiv, kontseptual, integrativ model asosida shakllanadi (1-jadval).

1-jadval: Integrativ bilimlarni shakllantirish jarayoni yo'nalishlari

Kognitiv	Kontseptual	Integrativ
<p>Interoektsiya - o'quvchi individual imkoniyatlari asosida o'zlashtirayotgan bilimlarini o'z ichki dunyosiga integrativ motivlar bilan qabul qilishi.</p> <p>Sinektika - turli fanlar bo'yicha amalga oshirilayotgan o'quv-bilish faoliyatining kontseptual xususiyatlarini umumlashtirish.</p> <p>Kogerentlik - integrativ va moslashuvchan didaktik jarayonlarni asosan texnologik turkum fanlaridagi barcha elementar printsiplarning bir-biri bilan ketma-ketlikda ilmiykognitiv jihatdan joylashtirish.</p>	<p>Fanning kontseptual tarixiy aspektlari, evolyutsion rivojlanish bosqichlari, tajribalar, zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari.</p>	<p>Gorizontal - fanlararo (Jismoniy tarbiya, odam anatomiyasi, matematika, geometriya, kimyo, geografiya, fizika, tarix).</p> <p>Diagonal - fan ichida (Jismoniy tarbiya, odam anatomiyasi, matematika, geometriya va h.k.).</p> <p>Vertikal texnologik: pedagogik, axborot kommunikatsiya tarmoqlararo: nonotexnologiya, kibernetika.</p>

Interoektsiya – bu o'quvchining individual imkoniyatlari asosida o'zlashtirayotgan bilimlarini ichki dunyosiga integrativ motivlar bilan qabul qilish jarayonidir. Ushbu jarayonda o'quvchining tafakkuri muhim rol o'ynaydi. Aynan tafakkur orqali tayanch va fanga oid kompetensiyalar shakllanadi, shaxsiy o'zlashtirish chuqurlashadi va intellektual rivojlanishga zamin yaratiladi. Tafakkur turli usullar orqali namoyon bo'ladi: sofistlik, eklektik, metafizik-dogmatik va dialektik yondashuvlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega. Tafakkur xotirada saqlangan axborotni qayta ishlash va umumlashtirish orqali voqealarning rivojlanishi yoki takomillashishi haqida taxmin yuritish va oldindan bashorat qilish imkonini beradi [6].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Harbiy mashg'ulotlarni o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa pedagogika fanida ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammoli o'quv vaziyatlarini hal qilishda tafakkur operatsiyalaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Natijada o'quvchilarning aqliy faoliyati va intellektual salohiyati rivojlanadi, ongli xatti-harakatga yo'naltiriladi hamda ularning ilmiy dunyoqarashi shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov Z. Sh. Tashqi va ichki komponentlar sinteziga asoslangan oliy kasbiy pedagogik ta'limning institutsional integratsiyasi nazariyasi va amaliyoti: dissertatsiya referati. Dis. ... Doktor ped. sci. – Ufa, 2009. – 48 b.
2. Zimnyaya I. A., Zemtsova E. V. Universitet bitiruvchilarining yagona ijtimoiy va kasbiy kompetensiyasini baholashga integratsiyalashgan yondashuv / I. A. Zimnyaya, E. V. Zemtsova // Bugungi kunda oliy ta'lim. – 2008. – № 5. – B. 14–19.
3. Tenishcheva V. F. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishning integral-kontekstli modeli: dis.... Doktor ped. sci. – M., 2008. – 339 b.
4. Abdullayeva B. S. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. – 2005. – 14-bet.
5. Беспалько В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Издательство ИРПО МО РФ, 1995. – 336 с.
6. Галеева Н. Л. Система компетенций как инструмент управления качеством образования // Интернет-журнал "Эйдос". – 2007. – 30 сентября. – <http://www.eidos.ru/journal/2007/0930>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.